



XORIJ HAMDA MAMLAKATIMIZ HARBIYLARI JASORATINING PSIXOLOGIK TAHLILI VA ULARDAGI MUAMMOLAR

Zohirov Nodirbek Ulug'bekovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Magistratura tингlovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada harbiy xodimning jasorati tushunchasi, uning psixologik jihatlari muhokama etiladi. Shuningdek maqolada yurtimiz hamda xorij mamlakatlarida harbiy jasoratning namoyon bo`lish holatlari ko`rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Harbiy jasorat, psixologiya, tarjiba, vatan himoyasi, vatanparvarlik.

KIRISH

Harbiy xizmatchilar doimiy jangovar shaylikni saqlab turuvchi soha vakillari hisoblanishadi. Bugungi globallashuv davri ko`rsatmoqdaki, har bir soniyada mamlakatga tashqi yoki ichki kuchlar isyon ko`rinishidagi harakatlarni boshlashi mumkin. Mazkur holatda avvalambor harbiylarning jasorati, jonkuyarligi vatan himoyasi uchun qo`l keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mamlakatimizda turli favqulotda vaziyatlar bo`lgan, ki ularda harbiylarning jasorati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lgan. Jumladan Andijon voqealariga nazar solsak. Andijonda 2005-yil 13-may kuni yuz bergen voqealar oqibatida, rasmiy ma'lumotlarga ko`ra, 187 kishi halok bo`lgan — shundan 60 nafari tinch aholi vakillari (ularning ichida ikki nafar voyaga yetmaganlar va bir nafari ayol) edi. 287 nafar kishi, jumladan, 91 nafar tinch aholi vakillari, 49 nafar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va 59 nafar harbiy turli darajadagi tan jarohatlari olgan.



1-rasm. Andijon voqealarini jarayonidan lavha

Azaldan oltin vodiy nomi bilan mashhur bo‘lgan Farg‘ona vodiysi qadimiy Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasida, Markaziy Osiyoning qoq o‘rtasida joylashgan. Oltin vodiy deyilishiga sabab bu mintaqaning nafaqat yer usti va yer osti boyliklari bilan to‘lib toshgani, balki bu yerda o‘ta tinchlikparvar va bag‘rikeng odamlar, bir so‘z bilan aytganda, oltin qalb egalari yashashi bilan ham bog‘liq. Asosiy qismi O‘zbekiston hududida joylashgan oltin vodiy hamisha dunyoning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bu mintaqaga e’tibor qaratganlar orasida esa katta geostrategik va siyosiy maqsad-manfaatlar ilinjida yurganlar ham bor. Ayrim katta davlatlarning Markaziy Osiyoni o‘ziga qaram qilish yo‘lidagi intilishlari eng avvalo ushbu mintaqaning eng asosiy davlati bo‘lgan O‘zbekistonni tizginlab olishga qaratilgan. Shuning uchun ham 2005 yilning may oyi o‘rtalarida Farg‘ona vodiysining yuragi sanalgan Andijon shahrida tashqi kuchlarning rejissyorligi ostida Markaziy Osiyodagi eng kuchli qonuniy konstitusion tizimni ag‘darishga qaratilgan harakatlari teatri boshlandi. **2005 yilning 12 maydan 13 mayga o‘tar kechasi.** Soat 01:45 da O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri Zokirjon Almatov mamlakat oliy bosh qo‘mondoni, Prezident Islom Karimovga telefon qilib, Andijon shahrida terrorchilik harakatlari sodir etilayotgani haqida xabar beradi. Xususan, bir guruh jinoyatchilar Andijon shahridagi soqchi-patrol xizmati, harbiy qism hamda qamoqxona hududiga hujum qilganini, ayni paytda ular shahar bo‘ylab qator terrorchilik harakatlarini amalga oshirayotganini ma’lum qiladi. Andijon voqealarini sodir etganlar o‘sha kuni o‘z xatti-harakatlarini 23 nafar “Akromiylar”ni nohaq qamashgani uchun bosh ko‘tardik, deb baholashga urinadi.



Vaholanki, "Akromiylik" deb atalish diniy-ekstremistik oqim a'zolari bo'lgan o'sha 23 nafar shaxs ustidan olib borilayotgan sud hali o'z ishini yakunlamagan, ularga nisbatan qanday chora qo'llanilishini hali hech kim bilmas edi. Shunday og'ir vaziyatlarda yurtboshimiz hamda safarbarlikdagi harbiylarning jasorati xalqni qutqarib qolishga sabab bo'ldi.

Mamlakatimiz mustqilligi tarixidagi yana bir mudhish voqealari sifatida Sariosiyo voqealarini keltirish mumkin. 2000 yilning avgusti. O'zbekiston sarhadiga xalqaro terrorchilar to'dasi hujum uyushtirdi. Tashkil topganiga hali ko'p vaqt bo'limgan maxsus operatsiyalar bo'yicha batalonlar jangarilarga qarshi kurash olib borayotgan edi.



2-rasm. Sariosiyo voqealarini jarayonida prezidentning ko'rsatma berishi

Voqeada qatnashgan harbiy shunday xotirlaydi: Kunlarning birida O'zbekiston Birinchi Prezidenti, Oliy bosh qo'mondon Islom Karimov bizning qismiga tashrif buyurdilar. U kishi yonimizga kelib, otalarcha samimiyat ila muammolar bilan qiziqdilar, yana qanday texnika yoki uskuna zarurligini so'radilar. Ammo hammasidan ham Islom Abdug'aniyevichning bizga qarata qilgan xitobi men va quroldosh do'stlarim xotirasida qoldi. "Yodda tutinglar, – dedilar Oliy bosh qo'mondon, – agar kimdir sizlarning to'g'ri dushman o'qiga, tikka o'limga borishingiz haqida buyruq berganimni aytsa, aslo ishonmanglar: men hozirgacha bunday buyruq bermadim va bundan keyin ham bermayman!"

Mazkur holatda davlat rahbari va batalyonning ko'rsatgan jasorati mamlakat mustaqilligining yanada mustahkamlanishiga sabab bo'ldi.

Mamlakatimizda davlat to'ntarishga bo'lgan harakatlar anchagina, ulardan yana biri yaqin o'tmishda sodir bo'lgan Nukus voqealaridir. Ommaviy tartibsizlik 1 iyul` kuni soat



14:00 da “Qum ovul” MFYda joylashgan “Salmen ota” masjidida juma namozini o'qib chiqayotgan fuqarolarga o'zini Dauletmurat Tajimuratov, deb tanishtirgan fuqaroning murojaati bilan boshlangan. U tinch aholini 5 iyul` kuni soat 17:00 da mitingga chaqiradi. Bu chaqiriq yozilgan video o'sha zahotiyoy Dauletmuratning tarafdorlari tomonidan internet tarmog'iga joylanadi va keng tarqatiladi. Shahar bedarvoza emas. Noqonuniy xattiharakatlar, ayniqsa u jamoat xavfsizligi va jamiyat tinchligi bilan bog'liq bo'lsa, darhol chora ko'rildi. SHu bois, huquqni muhofaza qiluvchi organ mas'ul xodimlari Dauletmurat Tajimuratovni aholini mitingga chaqirishdan ko'zlangan maqsadni bilish va miting o'tkazish tartibini tushuntirish maqsadida Nukus shahar ichki ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limiga olib keladi. Shundan so'ng, 20-25 fuqaro “Dauletmurat Tajimuratov hibsga olindi”, degan noto'g'ri talqin bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi IV 2-son tergov hibxonasi oldiga yig'iladi va “Mir” ko'chasi bo'ylab T.Qaypbergenov ko'chasi orqali shahar markaziy dehqon bozori oldiga qarab norozilik yurishini amalga oshiradi.

Yo'l-yo'lakay ular boshqa fuqarolarni ham o'zlari bilan birga yurishga chaqiradi va namoyishchilar soni ortib borveradi. Syu fursatda fuqarolarni tinchlantirish uchun tegishli choralar ko'rilib, voqeа joyiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi M.Kamalov, Qoraqalpog'iston ichki ishlar vaziri A.Orinbayev va boshqa rahbarlar etib keladi. Ular noqonuniy namoyishchilar bilan suhbatlashib, talablarini eshitadi.

Tezkor ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida ommaviy tartibsizliklar ishtirokchilari tarqatib yuboriladi. Ammo bu paytda Qoraqalpog'istonning boshqa tumanlarida ham fuqarolar to'planib, Nukus shahri tomon harakatlanish boshlagan edi. Namoyishchilarning bir qismi tushuntirish ishlardan so'ng tarqaladi, lekin qolgan jinoiy unsurlar tomonidan da'vat qilinganlari Nukus shahri tomon harakatdan to'xtamaydi.



3-rasm. Nukus shahrida ommaviy tartibsizlik

O'zbekiston tinchlikparvar va o'z xalqini, fuqarolarini har qanday vaziyatda, ular xoh chet davlatda bo'lzin, himoya qilishga qodir mamlakat. Qoraqalpog'istonning ayrim tumanlarida bir vaqtning o'zida boshlangan ommaviy tartibsizliklar va davlat boshqaruvi yakdilligini buzishga urunishlar tezda, noqonuniy kuch ishlatilmasdan bartaraf etilgani ham fikrimiz dalilidir.

Har bir mamlakat, har bir millatning o`z mentaliteti bo`ladi. Harbiy jasorat, vatanparvarlik hissi esa mentalitetdan xoli hodisadir. Har bir fuqaro o`z mamlakatini himoya qilishga urinishi tabiiy jarayon. Bugungi kunda jahon arenasida bir qator mamlakatlarning armiyasi jasorat ko`rsatib o`z vatanini, nomusini himoya qilmoqda. Jumladan Rossiyaning Ukrainaga nisbatan amalga oshirayotgan "maxsus harbiy operatsiyasi" deyarli 2 yildirki davom etib kelmoqda. Salmoqli yo`qotishlarga qaramasdan, Ukraina o`z hududining yaxlitligini ta`minlash uchun bor kuch-qudratini sarflamoqda.



4-rasm. Ukrainianliklarning himoyalanishidan lavha

Yana bir mudhish voqeа sifatida Isroiuning Falastinga amalga oshirayotgan hujumini keltirish mumkin. Bu ikki mamlakatning harbiy salohiyati kata tafovutga ega bo`lishiga qaramasdan, Falastin xalqi hech bo`lmaganda qalban vatan uchun tik oyoqda himoyalanmoqda.



5-rasm. Falastin-Isroiil voqealaridan parcha

XULOSA VA MUNOZARA



Mamlakat yoshlarini jasur, dovyurak etib tarbiyalash davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullaridan hisoblanadi:

- ishontirish;
- mashq qildirish va mustaqil ishlash; kuzatish;
- rag‘batlantirish;
- o‘rnak ko‘rsatish, shaxsiy namuna va boshqalar.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning shakllari. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy, amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, elektron o‘yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi va ular ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rang-barangligini ta’minlaydi, pirovard natijada jamiyatda Vatan himoyasiga doimo tayyor bo‘lish va Qurolli Kuchlar safida xizmat burchini o‘tayotgan yoshlar bilan faxrlanish, konstitutsion burch va harbiy qasamyodga sodiqlik tuyg‘ularini shakllantirish;

- harbiy xizmat sharoitlariga moslashish va harbiy ixtisosliklarni puxta egallash, har qanday qiyinchilikka tayyor turish, matonat va jasorat fazilatlarini mustahkamlash, qurol-aslaha, harbiy texnika, davlat va harbiy mulkni asrab- avaylash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- jangovar tayyorgarlik va harbiy mahoratni muntazam oshirib borish, harbiy jamoada qaror topgan o‘zaro yordam va do‘stona munosabatlarni qadrlash kabi fazilatlarni shakllantirish;
- kitobxonlikni keng targ‘ib etish, jamiyatda yuksak ma’naviyatni qaror toptirishda badiiy asarlarning roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish;
- yoshlarning o‘z tanlagan kasbini puxta egallashi va yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun yaqindan ko‘maklashish;
- milliy mafkuramizga zid bo‘lgan yot g‘oyalarga qarshi tanqidiy qarash va mafkuraviy immunitetni, o‘ziga ishonch, hushyorlik va ogohlilik tuyg‘ularini mustahkamlash;



- yoshlarda faol hayotiy pozitsiya va o‘zining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon eta olish, mas’uliyatni his etish, qat’iy tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini shakllantirish, ularni qat’iyatli bo‘lishga o‘rgatish.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi, T, 2018 yil
2. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonuni, T, 2017 y
3. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi
4. O‘zbekiston Respublikasi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiysi, T, 2018 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasining chaqiruvgacha bo‘lgan tayyorgarligi to‘g‘risidagi Nizom, T, 2018 y.
6. “Shunqorlar” harbiy-sport o‘yinlari reglamenti. 1999y.
7. A.I.Ibragimov. X.X.Sultonov “Vatan tuyg’usi” T. 1996 y.
8. “Vatanni himoya qilish – muqaddas burch” Harbiy nashriyoti, 2010 y.
9. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining “Vatanparvar” gazetasi